

O'QUVCHILARDA KREATIV QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISH

Aliyeva Matluba Jakbaraliyevna

Namangan davlat pedagogika instituti talabasi

matlubaaliyeva37@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada yoshlarning badiiy, ijodiy, intellektual qobiliyatlarini rivojlanishda tarbiya va metodlarning ahamiyatini bilib olish mumkin.

Kalit so'zlar: intellektual qobiliyat, tarbiya, ijodiy-badiiy imkoniyatlar, psixologik-pedagogik xususiyatlar, fikr, axloqiy-talablar.

Kirish

Respublikamizda barcha umumta'limga muassasalarida ta'lim jarayonlarini zamon talablari asosida ularda eng ilg'or innovatsion texnologiyalarni joriy etish va bu orqali ta'lim samaradorligini oshirishda, milliy qadriyatlarimiz aks etgan holda zamonaviy metodlardan foydalanishga erishish dolzarb hisoblanadi.[1] Bugungi kunda, o'quvchi-yoshlarning kreativ sifatlarini rivojlanish, kreativ fikrlash va ijodiy faoliyat natijalarini rag'batlanishga xizmat qiladigan strategiya va vositalarni ishlab chiqish masalasi alohida ahamiyatga ega. Keling avvalo bu tushuncha nima ekanligini bilib olaylik, "Kreativlik" (lot., ing. "create" – yaratish, "creative" – yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati hisoblanadi.[2] Har bir shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi. Shuningdek, kreativlik zehni o'tkirlikni belgilab beradi, o'quvchilar e'tiborini ta'lim jarayonlariga faol jalb etishni ta'minlaydi.

Adabiyotlar tahlili. Psixolog olimlar V.V.Davidova, A.V.Zaporozsa, B.F.Lomovalarning ta'kidlashicha[3]. Psixologiyada bu tushuncha ikkita yo'nالishda: - "ijodkor shaxsning hayotiy tajribasi va individual xususiyati (shaxsiyatli omillar); ijodiy tafakkur va uning mahsullari (kreativ omillar-tafakkur ongliligi, aniqligi, o'zgaruvchanligi, muammolarga nisbatan sezuvchanligi, o'ziga xosligi, topqirligi, ularning yechimini topishda konstruktivligi) sifatida ko'rib chiqadi".

Pedagog olimlardan O.Jamoliddinova, O.Musurmonova, M.Urazova, N.Egamberdieva, E.Yuzlikaeva, Sh.Sharipov, A.Umronxo'jayev, A.Valiyev, Ruziev E.I, Ashirboev A.O, Sh.Shodmonovalarning ilmiy izlanishlarida ta'lim oluvchilarda kreativlik qobiliyatlarini rivojlanishning bo'lajak mutaxassislarini kasbiy- innovatsion tayyorgarligini shakllantirishdagi o'ziga xos jihatlari, kreativlik sifatlarini rivojlanishga ta'sir etuvchi ijtimoiy omillar, shaxsning faolligi, shuningdek, ta'lim oluvchilarda tanqidiy, kreativ tafakkurni shakllantirish yo'llari va shakllari, mavjud pedagogik shart-sharoitlari, didaktik ta'minoti, shuningdek pedagogik kreativlik mazmuni yoritib berilgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

A.X.Maslou kreativlikni 2 turga bo'ladi: iste'dodning kreativligi va shaxsning o'z - o'zini aktuallashtirish kreativligi. Shaxsning o'z - o'zini aktuallashtirish kreativligi shaxs bilan uzviy



bog‘langanligi sababli biz unga kundalik hayotda va kasbiy faoliyatning ko‘p sohalarida duch kelishimiz mumkin.

A.X.Maslou kreativlikda o‘z - o‘zini aktuallashtirishning ikki darajasini keltirib o‘tgan: birinchisi - «ixtiyorsiz kreativlik, bunda shaxs birdan aqliga kelish, ruhlanish, qiyin kechinmalarga ega bo‘ladi», «ikkinchisi - ixtiyoriy, og‘ir mehnat bilan bog‘liq, uzluksiz ta’lim, kamolotga intiluvchanlik» .

A.X.Maslou kreativlikni inson tabiatining fundamental xarakteristikasi sifatida ko‘radi, ya’ni barcha insonlardagi tug’ma qobiliyat, lekin hayoti davomida ma’lum ijtimoiy to‘siqlar natijasida yo‘qolib ketadi deb hisoblaydi. Interfaol o‘qitish metodlari asosida o‘quvchilarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish muammolari quyidagilardan iborat.

T.A.Barisheva va Yu.A.Jigalovalar pedagogokada kreativlikni tizimli (ko‘p bosqichli, ko‘p o‘lchamli) psixik (ruhiy) ta’lim sifatida talqin etib, unga faqatgina intellektual potentsialni emas, balki motivatsiya, emotsiya, estetetik rivojlanish darajasi mavjudligi, kommunikativ parametrлari, kompetentligi va xokazolarni ham kiritadi.

Innovatsion ta’lim va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida ta’lim oluvchilarda o‘z-o‘zini ijodiy faollashtirish, kreativ ishlanmalar (mahsulotlar)ni yaratishga xizmat qiluvchi shaxsga yo‘naltirilgan erkin ta’lim muhitini tashkil etish A.Abduqodirov, N.Azizxodjaeva, U.Begimqulov, J.Yo’ldoshev, Yu.Kruglova, I.Ridanova, V.Slastenin, N.Sayidahmedov, O’.Tolipov, G.Chijakova, B.Xodjaev, Ya.G’afforov, M.Tilakova, S.Toshtemirovalarning ilmiy tadqiqotlarida asoslangan.

Tahlillar va natijalar.

Kreativlik. Kreativlik (inglizchada creativity) o‘ziga xos qadriyatlар yaratish, nostandard, ijodiy qarorlarni qabul qilishga oid individual xususiyatlarga egalik qobiliyatidir. O‘quvchilardagi kreativlik kuchli idrok qilish qobiliyati, muammoni hal etish yo‘llarini izlash, xushyorlik, ziyraklik, yangi g‘oyalarni ilgari surish, tanqidiy fikrash kabi faoliyatlarida namoyon bo‘lib, yangicha g‘oyalarni ishlab chiqishga qaratilgan ijodiy faoliyat hisoblanadi.

Falsafiy ensiklopediya lug‘atida kreativlik (lotincha creo-ijod qilmoq, yaratmoq) berilgan jarayon va muammolarni noodatiy ko‘rinishda yechimini topishga yo‘naltirilgan ijodiy o‘zgarishlarga bo‘lgan qobiliyat sifatida tavsiflanadi [4].

Umumta’lim maktablari o‘quvchilarining intellektual-ijodiy ishiga bir qancha talablar qo‘yilib, bular asosan o‘quvchilarning o‘zlashtirgan bilimlaridan amalda mustaqil foydalana olishi, o‘zini namoyish qilishga qaratilgan imkoniyatlardan to‘laqonli foydalana olishi kabi faoliyatlarida aks etadi.

O‘quvchilarda kreativ qobiliyatlarini aniqlash, shakllantirish va uni rivojlantirish ularning kelajakda har tomonlama yetuk, keng fikrli, dunyoqarashi keng insonlar bo‘lib yetishishlariga xizmat qiladi. Buning uchun o‘qituvchining ijodkor va kreativ bo‘lishi yoki bo‘lmasligi emas, balki darslarni ijodkorlik, kreativlik ruhida tashkil etishi, yangi g‘oyalarni ta’lim jarayonida sinab ko‘rishga intilishi zarur.

Mamlakatimizda inson, uning har tomonlama kamol topishi va farovonligi, manfaatlarini ro‘yobga chiqarish sharoitlarini yaratish, ta’lim sifati va samaradorligini yangi bosqichga olib chiqish borasidagi izchil islohotlar natijasida interfaol o‘qitish metodlari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish keng tatbiq etish imkoniyatlari yaratilmoqda.

Kreativlik termini angliya –amerika psixologiyasida 60-yillarda paydo bo‘ldi. U individning yangi tushuncha yaratishi va yangi ko‘nikmalar hosil qilish qobiliyati, xislatini bildiradi.[8]

Amerikalik olim J.Gilford kreativlikni tavsiflaydigan qator individual qobiliyatlarni ko‘rsatadi:

- fikrining ravonligi;
- fikrni maqsadga muvofiq yo‘llay olishi;
- o‘ziga xoslik (originallik);
- qiziquvchanlik;



- farazlar yaratish qobiliyati;
- xayol qila olish, fantastlik (fantaziya).

“Ijodkorlik - bu ko‘pchilikka noma’lum va murakkab xususiyatlarni o‘rganishga imkon beruvchi tafakkuri va ruhiyatining har xil sharoitlarda jamol ko‘rsatishi bilan bog‘liq o‘ziga xos fikrlash faoliyati modeli”, “Ijodkorlik - bu aql gimnastikasi, u nafaqat donishmandlargagina kerak va hatto oddiy ijodkor odamga ham zarur”, “Ijodkorlik - bu avvalo mehnatga ijodiy munosabatda bo‘lishni tarbiyalash, yangi bilimlarni o‘zlashtirishni uddalay olish, maqsad sari intiluvchanlik, g‘alaba uchun kurash, o‘z-o‘zini takomillashtirish va o‘zlikni anglashdir” kabi ta’riflar ijodkorlikning o‘ziga xos mohiyati haqida ochib berilgan.

Pedagoglarda kreativ faoliyatni bilishga oid (gnostik), loyihalash, ijodiy-amaliy (konstruktiv), tadqiqotchilik, muloqotga kiruvchanlik (kommunikativ), tashkilotchilik, texnik-texnologik tashkil etishga imkon beradigan malakalardir.[6] O‘quvchilar o‘zlarining kreativ fikrlash qobiliyatlarini qulay muhitda to‘la namoyon qilishlari mumkin. Agar o‘quvchilarda muvaffaqiyatsizlikka uchrash qo‘rquv hissi mavjud bo‘lsa, fikrni noto‘g‘ri ifodalashdan hadiksirasalar, tanqidga uchrasalar bunday vaziyatda ularda kreativ fikrlash ko‘nikmalarini samarali shakllantirish yoki rivojlantirish mumkin bo‘lmaydi. O‘quvchilarda kreativlikni odatga aylantirish orqaligina kreativ fikrlash ko‘nikmasini muvaffaqiyatl shakllantirish mumkin. Bu jarayonda ular tomonidan mavzu mazmunining puxta anglanishi va kreativ fikrlash ko‘nikmalarini baholashda qo‘llaniladigan metod va vositalar muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zini tavakkaldan olib qochish, fikrlash va xatti-harakatlarda qo‘pollikka yo‘l qo‘yish, shaxs fantaziysi va tasavvurining yuqori baholanmasligi, boshqalarga tobe bo‘lish, har qanday holatda ham faqat yutuqni o‘ylash.[7] Ushbu omillar shaxsda kreativlikni rivojlantirishga to‘sinqinlik qiladi. O‘quvchilarni kreativ fikrlashga o‘rgatish, ularda kreativ tafakkurni shakllantira olish uchun avvalo o‘qituvchining o‘zi kreativ shaxs bo‘lishi zarur. Bordi-yu, uning o‘zi kreativlik sifatlariga ega bo‘lmasa, u holda qanday qilib, o‘quvchilarni kreativ fikrlashini rag‘batlantira oladi.[9]

Bundan tashqari kreativ qobiliyatlarni rivojlanishda tasviriy san’atning o‘mi beqiyosdir. Chunki har bir o‘quv materialini tushuntirishda ko‘rgazmalilik yetakchi o‘rinda turadi.[5] U hoh hikoya bo‘lsin, hoh dars mashg‘ulotlari mavzusi bo‘lsin uni tushuntirishda o‘quvchilarga oson tushuntirishda tasviriy san’atdan ya’ni mavzuga pedagogik ko‘rgazma materialidan foydalanish o‘qib yoki gapirib tushuntirishdan tubdan farq qiladi. O‘qilganda, gapirligandagi tasavvur bilan o‘sha o‘quv materialini tasvirlab ya’ni ijodiy, badiiy, kreativ yondashish, tasviriy san’at asarlari orqali ko‘rsatib berish samarasi yuqori bo‘ladi. Buni ayniqsa boshlang‘ich sinflarda qo‘llanganda samarasi juda yuqori hisoblanadi. Chunki ularda eshitib o‘rganishdan, rasmlar orqali tasvirlab berilgan ma’lumotlarni qabul qilish va tasavvur etish osondir. Ularda tasvirga qarab ham hikoya tuzishlari, tafakkur qilishlari mumkin. Bilamizki, umumta’lim maktablarining 1-4-sinflarga mo‘ljallangan har bir darslik tasviriy rasmlar bilan yaratilganligi buning yaqqol misolidir.

Xulosa.

Kelajak avlodni har tomonlama yetuk, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda vatanga sadoqat, yurt ravnaqi uchun munosib hissa qo‘shadigan shaxs qilib shakllanishida o‘qituvchining o‘zi kreativ, ijodkor bo‘lsagina, o‘quvchilar ham shunday bo‘la oladi. Pedagogning ijodkorligi va kreativligi yosh avlodda ham ilmga bo‘lgan qiziqishlarini oshiradi, o‘quvchilar nimadan tez zerikadilar bir xillikdan, shuning uchun ularga noana’anaviy metodlardan foydalanib, ilg‘or zamonaviy texnologiyalar asosida darslarni ijodkorlik, kreativlik ruhida tashkil etishi, yangi g‘oyalarni ta’lim jarayonida sinab ko‘rishga intilishi zarur. Pedagog yangiliklarni o‘zi o‘zlashtirib, o‘quvchilarga ham yetkaza bera olishi darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar:



1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi «Oliy ta'lif tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2909-son Qarori. Qonun xujjatlari to'plami milliy bazasi. 2017
2. 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026 yi llarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-sonli Farmoni.
3. Давыдова В.В., Запорожца А.В., Ломова Б.Ф. Психологический словарь. – М.: Педагогика, 1983. – 448 с.
4. Философия: Энциклопедический словарь / Под ред. А.А.Ивина. – М.: Гардарики, 2004. – 1072 с. (ИСБН 5-8297-0050-6).
5. B.Oripov. San'at nazariyasi. N. 2010 y
6. Tolipov.U,Q, Sharipov SH.S “O'quvchi shaxsi ijodkorlik faoliyatini rivojlantirish pedagogik asoslar” “Fan” nashri 2012-yil 18,19-bet.
7. O',J.Yo'ldoshev tahriri ostida. “Umumiyy pedagogika”. –T.:«Fan va texnologiya», 2017.
8. Nodira Egamberdiya “Ijtimoiyedagogika” Toshkent 2019.
9. Lerner I.Ya. [Pedagogicheskie zametki iz-za reshetki](#). M.: 1990. 45-48 S.

